

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросянец Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI ("Qizil va qora" hamda "Parma monastiri" asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI..	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmurotovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batiyralievna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Muslimova Shahnoza SunnatovnaToshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18734089>

ANNOTATSIYA

Yom Sansopning “Tajribaxonadagi qurbaqa”, “Qorong‘u tun”, “Yilning so‘nggi tuni” kabi hikoyalari uslubi, shakli, mavzu va kompozitsiya jihatidan bir yo‘nalishga mansub. Sanab o‘tilgan asarlarda tagmatn ostiga berkitilgan fikr “O‘lim to‘shagi” hikoyasida davom ettiriladi hamda koreys nasrini yangi bosqichga ko‘tarish uchun tashlangan dadil qadamlardan biri bo‘ldi. Muallif hikoyalarida qo‘llagan timsol, ramz, detallarda kitobxon matn ostida berkitilgan fikrni ilg‘ashi, tafakkur qilishi kerak bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: o‘lim, hayot, shaxs, fojea, bemor, yangi unson, tuman, e‘tiqod.

Muslimova Shahnoza Sunnatovna

Independent Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

A NEW EXPRESSION OF LIFE AND DEATH IN YOM SANSOP'S STORIES

ABSTRACT

Yom Sang-seop's short stories such as “The Frog in the Laboratory”, “Dark Night”, and “The Last Night of the Year” share a unified approach in terms of style, form, theme, and composition. The implicit ideas embedded within these works are further developed in the story “On the Deathbed”, which represents one of the bold steps in advancing Korean prose to a new stage. Through the use of symbols, metaphors, and artistic details, the author invites readers to interpret and reflect upon the underlying meanings beneath the surface of the narrative.

Keywords: death, life, individual, tragedy, patient, new human, fog, belief.

Муслимова Шахноза Суннатовнанезависимый исследователь Ташкентского
государственного университета востоковедения

НОВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЖИЗНИ И СМЕРТИ В РАССКАЗАХ ЁМ САНСОПА

АННОТАЦИЯ

Рассказы Ём Сансопа, такие как «Лягушка в препараторской», «Тёмная ночь», «Последняя ночь года», характеризуются единством стиля, формы, тематики и композиции. Мысли, скрытые в подтексте этих произведений, получают дальнейшее развитие в рассказе «На

смертном одре», который стал одним из смелых шагов в развитии корейской прозы на новый этап. Авторское использование символов, образов и художественных деталей требует от читателя способности улавливать заложенные в подтексте идеи и осмысливать их.

Ключевые слова: смерть, жизнь, личность, трагедия, больной, новый человек, туман, вера.

Iqtidorli yozuvchi, o'z davrining mashhur nosiri Yom Sansopning "Tajribaxonadagi qurbaqa", "Qorong'u tun", "Yilning so'nggi tuni", "O'lim to'shagi" hikoyalarida asardan asarga ko'chib yurgan "o'lim" va "hayot" kategoriyalari yetakchilik qiladi. "Tajribaxonadagi qurbaqa" hikoyasida yolg'izlik motivi yetakchilik qilsa-da, o'lim va hayot o'rtasidagi kurash ham yonma-yon turadi:

– ...O'lim...O'lsam, yaxshi bo'lardi, – dedim men tushimni boshidan oxirigacha eslashga urinar ekanman. So'ng cho'ntagimdan tamaki chiqardim va uni torta boshladim.

– O'z-o'zingni o'ldirdingmi? – deb kinoya qildi N. menga tikilib.

– Sohibjamolning qo'lidan o'ldim...Menday odamning o'zini o'zi o'ldirishiga jur'ati yetarkanmi? E-e-e-eh...

– Kimning qo'lidan? Agar u chindan sohibjamol bo'lsa, men ham uning qo'lida jon deb o'lgan bo'lardim...ikki-uch marotaba...he-he-he...

– Aslini olganda...Agar og'riq va qo'rquvsiz o'lish va va baribir tirik qolishning iloji bo'lganida, men hayratga to'la bu tuyg'uni qayta va qayta boshdan kechirishga tayyor edim! Bu hayrat bilan hech narsa tenglasha olmaydi!"

Bosh qahramon irodasi sust yigit hamda ruhiy xastalik sabab ozor chekadi. Shu sababli ko'rgan tushini gapirib berishdan oldin o'zini tinchlantirish uchun tamaki tortadi. O'limi uyqu holatida sodir bo'lishini istagan qahramon, aslida, jamiyatda kechayotgan adolatsizlikdan ogohlantiradi. Yoshlarning, ziyoli insonlarning jamiyat tartibsizligi oqibatida o'zini, o'zligini topa olmayapganligini oshkora aytishdan qo'rqadi. Matnda berilgan "og'riq va qo'rquvsiz o'lish" millat fojeasi bo'lsa, "hayratga to'la...tuyg'u" uning sarobga aylanayotgan orzularidir. Hikoyadagi o'lim kategoriyasi millat fojeasi va orzulari o'rtasida chuqur jarlik hosil qiladi. Ammo, bosh qahramon xudkushlikka qo'l urishdan qo'rqadi.

Xonadagi chiroqning o'chib qolishidan, dahshatli xayollar girdobidan ham qo'rqadigan bosh qahramon bir tomondan tahluka tushadi, uni o'lim ta'qib qiladi, ikkinchi tomonidan u yashashga "hayot"ga intiladi, xayolida "O'zim rasmda ko'rgan chakalakzor o'rmonlar, palma soyasida o'tirgan yovvoyi odamlar haqida o'ylab..." tirik qolishga harakat qiladi.

Koreya hududida bo'lib o'tgan 1919-yil 1-mart harakatlari jamiyat hayotida tubdan o'zgarishlarga zamin yaratdi. Uzoq asrlik feodal tuzumga o'rgangan, ko'nikkan inson bir tomondan yangi tuzumga, ikkinchi tomondan feodal tuzumdan ham qattiq yapon siyosatini qabul qilishi oson kechmadi. Yom Sansopning "Qorong'u tun" hikoyasi mana shu harakat inqirozidan so'ng yozilgan. Yozuvchining ongu-shuuridan o'tkazilgan fikr-mulohazalar bosh qahramon qarashlariga singdirilgan. Feodal tuzum davrini ko'rgan, Yaponiyada yangi bilimlarni egallagan, "homiylilik shartnomasi"ning salbiy oqibatlariga guvoh bo'lgan, mamlakatidagi istibdod sababli namoyishchilarni qo'llab-quvvatlagan, ammo mag'lubiyatga uchragan bu harakatdan so'ng tushkun kayfiyatdagi bosh qahramon ko'plab voqealarning jonli guvohi.

Hikoya markazida turgan qo'rquv og'ushidagi qahramon inson umrini bir varrak kabi omonat ekanligini his qiladi: "...Hamma narsa varrakdir. Oqsoq bolaning varragidan ortiq emas...O'zini aldash, o'zini masxara qilish..." o'lim va hayot masalasini anglagan qahramon o'zi bilan o'zi kurashadi: "...Nega bunday yashayapsan?"

Mustamlaka istibdodi davrida ruhiy-ma'naviy zarbaga uchragan, ijtimoiy hayot qarshisida ilojsiz, vatanining ozodligi yo'lida chorasiz bosh qahramon aslida muvaffaqiyatsiz namoyish ishtirokchilarining umumlashma obrazidir. O'z yurtida "mehmon" qahramon iztiroblar ortidan isyon ko'targisi keladi: "U hozir olomon zich ko'cha bo'ylab harakat qilayotgan bo'lsa-da, o'zi ham odamlar olamida ekanligini xayoliga ham keltirmasdi. Eng dahshatlisi hozir ag'darilib tushadigandek sekin harakatlanayotgan tumanli bulut misol maqsadsiz oqib ketayotgandek edi.

Hayot – bu ayyorlik, boylikka havas deb bilgan chehralarni har ko‘rganida tayoq bilan tushirgisi kelardi...Nimasi inson hayoti ekan?”

Sabr kosasi to‘lgan xalq “...sekin harakatlanayotgan tumanli bulut” kabi yorilishga tayyor. Ammo muallif *tuman* detalida harakatning natijasizligini oldindan bashorat qiladi.

Hikoyaga bosh qahramonning Yudo Murang qalamiga mansub “Tug‘ilish iztirobi” hikoyalar to‘plamini mutolaa qilish epizodining kiritilishi asar dramasi yanada kuchaytiradi. Bosh qahramon qorong‘u tun og‘ushiga kirishdan oldin ko‘p ko‘z yosh to‘kdi, kitobni o‘qishda davom etarkan, ko‘z yoshlari to‘xtamadi. Bu achchiq, alamli ko‘z yoshlar mag‘lubiyat sabab edi. G‘azab va nafratini yengishga o‘zida kuch topmagan bosh qahramon tabiatdan panoh izlab, tashqariga chiqdi. Shubhali oyoq tovushlaridan ehtiyot bo‘lib, bosh qahramon cheksiz cho‘zilib yotgandek taassurot uyg‘otadigan, bir vaqtlar ko‘ziga “qabr” kabi ko‘ringan katta va keng Gvangxamun darvozasi Taepyeongdong bo‘ylab shaxdam qadamlar bilan yurib ketdi. Hikoya hissiy yakun bilan tugallanadi.

“Yonoqlarini silagan kuz oqshomi shamoli yoqimli edi. To‘rt xoch tomonga burildi...Olis osmondagi yulduzlarga tikilib, qiynalganidan yig‘lagisi kelardi...Qorong‘u yo‘lning o‘rtasida tik turib...: “Boshim uzra osilgan nurli marvaridlarga o‘xshash yulduzlarga abadiy tiz cho‘kay! Bu nochor mavjudotga kuch bering...”

Xanmunda berilgan “to‘rt” raqami o‘lim ma‘nosini anglatadi. Ma‘lumki, koreys xalqi azaldan shomonlik irim-sirimlariga amal qiladilar. Shunga ko‘ra, ayrim tabiat hodisasi, hatto raqamlar tasodifiy mosligi sababli xosiyatli hisoblanadi. Yoki aksincha, ayrim jonzorlar, jumladan, mushuk, tulki, shuningdek, begunoh raqamlar, xususan, to‘rt soni bexosiyat omil hisoblanadi. Aslida to‘rt raqamiga bo‘lgan qarashlar xitoy madaniyati ta‘siri bilan uzviy bog‘liq. Yozuvchi shu raqam orqali bosh qahramonni kutayotgan “o‘lim” sharpasidan ogoh qiladi.

Yom Sansopning “Tajribaxonadagi qurbaqa” hikoyasida bosh qahramonni ta‘qib qilayotgan o‘lim, “Qorong‘u tun” hikoyasi bosh qahramoniga yanada yaqin keldi. Har bir hikoyada bosh qahramonning o‘limga munosabati anglashib boriladi. Yozuvchi hikoyalariga kiritgan qahramonlar – davr yoshlari o‘limni turli xil tarzda qabul qiladilar. O‘lim – insonning e‘tiqodi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uni qanday qarshi olish qahramonlarning turmush tarzi, hayotdagi maqsadlari natijasini anglatadi.

Muallifning “Yilning so‘nggi tuni” hikoyasida avvalgi ikki hikoya bosh qahramonlari ruhiyatida paydo bo‘lgan zo‘riqishlar yanada keskinlashdi. Yangi olgan bilimlari mamlakati uchun asqotmaganligi, “sob” bo‘lgan orzular bosh qahramon ruhiyatiga yanada yomon ta‘sir ko‘rsatdi. Millatdoshining, atrofidagi vatandoshining “buqalaman” kabi xatti-harakatlari, sotqinliklari oldida ojiz qoldi. *“O‘lim – odamzodni turmush tashvishlaridan xalos qiluvchi, o‘zi bilan yolg‘iz qoldiruvchi, uning ruhiyatida o‘zgarish yasovchi azalning mutlaq qonuni”*.

Ammo, yozuvchi kiritgan epizod – ajrashgan ayolning ko‘kragi ostida qimirlagan homila inson tug‘ilishi va o‘lim oralig‘idagi fikrlarni o‘zgartirdi. Bu unga yashashga bo‘lgan imkoniyatni berdi. Bu ayolning ichki monologida beriladi:

“Bu, belimga bog‘langan yubkaning bitta ipi menga abadiy hayot baxsh etadi. Oh, xursandman. Yengillik his qilaman. Otasi yo‘q bolaga, “ona” degan so‘zni eshittirmaslik aybining qanchalik yengilligini bilmayman. Qanchalik baxtli ekanligimni ayta olmayman. Yana bir soatdan keyin yangi yil kirib keladi. R.ning nasl-nasabimi, Ye. bilan tuzilgan nikohmi...bu ayanchli, la‘nati taqdir ham bir soatdan keyin boshlanadi. Ammo bu hayotni saqlab qolish mas‘uliyati to‘liq menga bog‘liq...Ikki kishining hayoti saqlab qolindi”.

Turmush iztiroblari, qiyinchiliklaridan charchagan, yashashdan maqsad sarob bo‘lgan bir vaqtda ayolni yashashga undagan – homila hayot va o‘lim o‘rtasidagi oraliq vositaga o‘xshaydi. Botinida kechayotgan chigal fikrlar yangi yil, yangi inson uni qayta yashashga undaydi. Shu bilan birga yangi inson hayotini saqlab qolish, unga umr bag‘ishlash mas‘uliyati atrofidagi norasoliklarga ko‘nishga majbur qiladi. Ayollarga, onalarga xos xususiyat – zurriyodni dunyoga keltirish majburiyatini anglagan ayol qahramonning bu tanlovi kitobxonning unga bo‘lgan hurmatini oshiradi. Homila ayolning ruhiyatida keskin o‘zgarish yasadi, uni jinoyat qilishdan asrab qoldi.

Yom Sansopning “O‘lim to‘shagi” hikoyasining ilk satrlari bemor holati tasviri bilan boshlanadi: *“To‘shakka suyanib, gavdasini zo‘rg‘a ko‘tarib o‘tirgan bemor, umidsizlik yoqasidagi*

odamga o'xshamas, fikrlari tiniq, nafas olishi bir maromda, nutqi ham ravon edi". Bu o'quvchiga hikoya qilinadigan voqea va qahramon taqdiri haqida oldindan xabar beruvchi ekspozitsiya vazifasini o'taydi. Muallif ekspozitsiyadan so'ng hikoyaning markazida turgan bosh qahramon – bemorning kasalxonada yotish sabablari, shifokor muolajalari va hamda sharq tabobati bilan shug'ullanadigan tabib tavsiyalari, yetishmayapgan dori-darmonlar, umri poyoniga yetib borayotgan shaxs, sog'lom va kasal inson qalbi hikoya qilinadi.

Bemorning nolalari, kasalxonadan ketishni paysalga solishi, og'riq qoldiruvchi dorining soat sayin ta'siri kamayishi qahramon tilida beriladi: *"Urush tugagan bo'lsa ham, dori yo'qligidan o'lasan! Axir, puling yo'q bo'lgani uchun dori ololmagansan!"* Bemor urushda ishtirok etmagan, muallif uning tashxisi haqida aniq ma'lumot bermaydi. Bu yerda urush – ajalning sharpasi, dori esa – yo'qsillik ramzidir. Hikoya qahramoni ijtimoiy muhit bilan to'qnash kelgan ayanchli taqdir egasi.

Bosh qahramon hayotining eng mayda tafsilotlari ham adibning o'lim haqidagi falsafiy qarashlari zanjirini tizimli berishga xizmat qilgan. Yuqorida keltirilgan satrlar bunga misol bo'la oladi. Adib hayot va o'lim o'rtasida arosatda turgan insonning barcha xatti-harakatlarini ishonarli tasvirlaydi. Bir uni o'lim bilan yuzma-yuz qoldiradi *"Qanday qilib kasalxonadan chiqish mumkin. Dori yozdirib olish kerak. Shu holda chiqib ketsam, bo'g'ilib o'laman"*, *"Qanday qilib men birdan sog'ayib ketishim mumkin?"*, *"Bu o'limga mahkum bo'lishdan ham yomonroq...O'limga mahkum qilingan o'z taqdirini bilmaydimi?...Qatl qachon amalga oshirilishini oldindan aytib berishadi...Bular aynan menga – hammadan oldin bilishi kerak bo'lgan menga aytmay, go'yo mening hayotimga xo'jayindek, orqa tuynukda xonama-xona yurishadi"*, *"U o'lmaganini anglab, yengil tortdi. Uyqusida nafasi og'irlashib qolishidan qo'rqib, uxlashni istamasdi"*

Aqlan o'limi yaqinligini his qilsa-da, qalban yashashga intilayotgan bemorni so'nggi manzilga kuzatishda, ya'ni dafn marosimini qaysi urf-odatlariga ko'ra amalga oshirish masalasining qo'yilishi hikoyada dramatismni kuchaytiradi. Bosh qahramon bir umr buddaviylikka e'tiqod qilgan, hatto ota-onasining dafn marosimlarini ham buddaviylik rasm-rusumlariga ko'ra amalga oshirgan. Shu sababli o'zining so'nggi manzilga alohida hurmat-ehtirom bilan kuzatishlarini istaydi. Muallif bosh qahramon ukasining akasi o'limidan oldin oila a'zolarini to'plash, buddaviylik marosimlarini o'tkazish haqida maslahat solish lavhasini kiritadi. Bu yerda adib, marhumni qaysi odatlarga ko'ra dafn qilishni emas, balki dafn marosimlari bilan bog'liq xarajatlarga e'tibor qaratadi:

"Dafn marosimini o'tkazish agentligi vakili tashvishli ko'rinardi.

"Jasad ortilgan mashina ortidan alohida avtobus tayyorlashingiz kerak, shuning uchun biz ikkita mashinaga 40 000 von sarflaymiz, deb o'ylayman".

Agar Xongjevon krematsiyasidan foydalanilsa, besh yoki olti ming von bo'ladi, lekin bu juda katta yukdek tuyuldi, chunki faqat transport xarajatlarining o'zi uchun 40 000 von ham yo'q edi".

"O'lim to'shagi" hikoyasida buddaviylikka amal qilgan bemorni ortiqcha xarajatlarsiz dafn etish uchun ayoli zo'r berib eriga katolikni qabul qilishni tavsiya qiladi. Hatto bemorni kasalxonadan olib chiqishdan oldin bir-nechta dugonalari bilan borib, eriga tasalli berdi, dugonalari bilan birga duolar qildi. Bu bosh qahramon ukasining g'ashiga tegdi, yangasining muqaddas cherkovga borgani, shag'am qo'yib kelgani: *"Men u yerdan hatto muqaddas suv oldim"* degan gaplaridan jahli chiqdi. Ajdodlar xotirasini qadrlamaydigan yanga buddaviylik marosimlarini o'tkazish *"ko'p qavatli imorat qurish"*dek be'mani harakat deb hisoblaydi.

Jamiyatga moslasha olmagan qahramon o'zini yolg'iz his etib, tushkunlik holatiga kelib qoladi. Ingliz shoirasi Rebeka Jo "Yolg'izlik va tushkunlik" she'rida yolg'izlik tushkunlikni keltirib chiqarishini ta'kidlagan. Muallif hikoyada yolg'izlikni tun, qorong'ulik, zulmat kabi tabiat hodisalarida ifodalaydi, bosh qahramonning yolg'izlikka mahkumligi sabablarini jamiyatga nisbatan yot fikrlashda, o'zgarayotgan jamiyatni qabul qila olmasligida ko'rsatadi.

"O'lim to'shagi" hikoyasida bosh qahramonning o'lim oldidan o'zini tetik tutishga harakat qilishi, xuddi sir boy bermaslikka urinish kabi lavhalari juda ham ta'sirchan tasvirlangan. Bosh qahramonning uyqu holatida yotishi hikoyaning fojeaviyligini kuchaytirishga xizmat qilgan:

"Cho'kayotgan odam yangi gul (xasga) shoxiga yopishib olgani kabi, atrofidagi insonlar, tanishlarga qarab o'z e'tiqodiga mos ravishda bemorning tuzalib ketishi yoki tinch orom olishini so'rab, duolar qilish bu – ruh yoki Buddaga ibodat emas...duo rad etib bo'lmaydigan yoki

minnatdorchilik bildiradigan go'zal xilqatdir. Ammo, bemor duoni tinglayapdimi yoki yo'q, oshkor etmas, go'yo chuqur uyquga ketgandek, ko'zlarini yumgancha, yuz ifodasini o'zgartirmay jim yotardi"

Hikoyada berilgan “yangi gul shoxi”da bemorning hamshiralar tomonidan tavsiya qilingan katolik diniga nafaqat rozi bo'lgani, balki e'tiroz bildirmagani tasvirlanadi. So'nggi manzil oldidan uni ruhan qo'llab-quvvatlab, tasalli berayotgan ayoli, dugonalarining qilayotgan duolarini “go'yo chuqur uyquga ketgandek” tinglayotgan bosh qahramon aslida yaqinlarining ortiqcha xarajat qilmasliklari haqida o'ylardi. Ammo, tez yordam mashinasiga chiqishdan oldin ko'zlarini katta-katta ochib, atrofga qarab “Haydovchiga yo'lni to'g'ri ko'rsatish kerak”, degan jumlada uning ikki xil e'tiqod o'rtasidagi tebranishlari ishonarli tasvirlangan.

O'z ijod namunalari bilan zamonaviy koreys hikoyachiligi rivojiga ulkan hissa qo'shgan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki hamda g'oyalari bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan Yom Sansop hikoyalari qahramonlari – prototipi adibning o'zi bo'lib, muallif o'zining badiiy obrazini yaratdi. O'z hayot yo'li, mashaqqatli hayoti, davr ruhiyati aks ettirilgan hikoyalarining bosh qahramoni – mazkur davr ziyoli ahlining umumlashma tipidir. Hikoyadan hikoyaga ko'chib yuruvchi asosiy masala – tushkun kayfiyat va tolesizlik, inson boshiga tushgan musibat, qiynoq va azoblar aslida davr ijodkorlarining, yoshlarning taqdiri bilan bir nuqtada kesishadi.

Muallif hikoyalarida nafaqat inson taqdiri, balki davrning manzarasi ham gavdalanadi. Muallif bosh qahramonni jamiyat ziddiyatlari bilan bog'liq ravishda tasvirlaydi. Vatan taqdiri uchun jon kuydirayotgan, ammo davr ziddiyatlari oldida ojiz, kurashlari samarasiz yoshlar uchun so'nggi manzil – o'lim muqarrar. Yozuvchi o'lim konseptini badiiy poetik vosita darajasiga ko'tardi. Ayrim asarlarda o'lim ziddiyat yechimi, asarning avj nuqtasini belgilash vositasi bo'lish bilan birga qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni ko'rsatishda asos vazifasini o'tadi. Badiiy adabiyotda qahramon o'limi yapon istibdodi, mafkuraga qarshi kurashni namoyon etdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Қиличева М.Р. Инглиз ва ўзбек адабиётида психологик ҳолатлар талкинида адабий таъсир муаммоси (ёлғизлик мотиви мисолида). фил.фан.автореф... – Бухоро. 2020.
2. 염상섭. 두 파산. 암야. – 서울: 문학과지성사, 2006. –17.쪽.
3. Юнусова, Г. Д. (2019). К вопросу о функционировании "주다"(" чудо") в качестве вспомогательного глагола (на материале форм повелительного наклонения в корейском языке). *Молодой ученый*, (44), 162-164.
4. Yunusova, G. D. (2022). Specific Aspects Of The Speech Act In Korean. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10).
5. Yunusova, G. D., & Mirjamilova, S. M. (2024). Studies on grammatical means expressing the meaning of " guess" in linguistics. *Oriental Journal of Philology*, 4(02), 1-7.
6. Nosirkhonov, N. N., & Yunusova, G. D. (2022). Explicit methods of expressing please speech acts in Korean. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 44-50.
7. Yunusova, G. D. (2020). AUXILIARY VERBS IN KOREAN LANGUAGE THAT MEAN COMPLETION, PRESERVATION, REPETITION, AND INTENSIFICATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 4213-4220.
8. Yunusova, G. D. (2021). Aspect and modal meanings of auxiliary verbs in Korean language. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(5), 339-343.
9. Shokirkhonova, E., & Yunusova, G. D. (2023). PECULIARITIES OF IMITATION WORDS IN KOREAN AND UZBEK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 4(10), 55-58.
10. Yusufova, M. Y. Q., & Yunusova, G. D. (2022). ANALYSIS OF MODERN SCIENTIFIC RESEARCH ON VERBS IN KOREAN. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(11), 29-33.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000